

Mavzu: Hozirgi zamon oilasining turlari. Oila vazifalari.

Reja: 1. Hozirgi zamon oilasini (monogom) turlari.
2. Oilaning asosi vazifalari.

Tayanch tushunchalar

To'liq oila
Noto'liq oila
Godvin nikohi
Avtaritar
Demokratiya
Lebiral
Ambivalent detorsentrik
Kvaziovtonom detorsentrik
Kommunakatsiya
Rekriativ
Flotsitologik
Regulyativ
Relaksatsiya
Reproduktiv

Adabiyotlar ruyxati

1. **Karimova V.M., Akromova F.A.** Psixologiya. -T.:2000.-172 b
2. **Karimova V.M.** Oilaviy hayot psixologiyasi. -T.:2006.- 142 b
3. **Pankova A.M.** Uporoga semeynoy jizni. Kn. Dlya ucheyelya. M.,1991
4. **Semeynoy vospitanie** Kratkiy slovar. Sost. I.V.Trebennikov.L.V.Kovinkov. -M.,1990.-319b.
5. **Sog'inov N.A.** Sotsialno-psixologichiskiy osobennosti udovletvorrennosti brakom v uzbekiskom sem'e. -M.,1998
6. **Oila psixologiyasi:** Akad. Litsey va kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'l./G'. B Shoumarov, I.O.Haydarov, N.A. Sog'inov va b. -T.: "Sharq", 2008.- 296 b.

Ma'ruza matni

Hozirgi zamon oilalarining monogom oilalar deb yuritilishini oldingi darslardan sizga ma'lum bo'ldi. Biz siz bilan monogom oilalarni ham xarakteriga ko'ra bir nehta turlarga ajratamiz.

Monogom oilalarning xarakterlovchi mezonlariga ko'ra turlari:

- To'liqligiga ko'ra:** to'liq, noto'liq, qayta tuzilgan oilarga ajratiladi.
 - a) to'liq oila-ota ona va farzandlardan iborat bo'ladi. Yani bunday oilalar to'liq oila deb yuritiladi.
 - b) noto'liq oila-bunda oilada yo ota yo ona bolmaydi. XX asrning oxida kelib ko'payib ketdi. Golodning malumotiga ko'ra Rossiyada har 100 ta nikohdan 51 tasiga ajrim tug'ri keladi. O'zbekistonga oxirgi yillarda 14.5 mingdan 15 minggaacha oilalarning ajralishi kuzatilmoqda. Ajrimli oilalarning 70 % ga yosh oila bo'lib, ularga o'rtacha 2,5 ta etim qolgan. Noto'liq oilalar beva qolish natijasida ham paydo bo'ladi. lekin bunda tarbiya ijobiy bo'ladi (tadqiqot G.Yadgorova)
 - g) qayta tuzilgan oilalar – bu odatda beva qolgan tul xotinga uchraydi. bunday nikoh birinchi marotaba Angliyada kuzatilgan, XVI asrda. qayta tuzilgan oilalardan yana biri – bu Godvin nikohi deb ataladi. Bu ideal nikoh ham deb yuritiladi. Godvin nikohida jinsiy yaqinlik ko'zga tutilmaydi. faqatgina ruhi yaqinlik, o'zoro yordam, bir-birini qo'llab-quvatlash asosiy mativ bo'lib xizmat qiladi.
- Bug'unlar soniga ko'ra :** nuklear (ota-ona va farzanddan iborat) va ko'p bug'unli (ikkita avlod) oilalarga ajratiladi. Sharqda ko'p bug'unli oilalar ko'proq uchraydi. Bu kursatgich 23,5 % ni tashkil etadi. nuklear oilalar g'abda ko'proq uchraydi. Bu kursatgich 50,1 % ni tashkil etadi.
- Bolalar soniga ko'ra:** farzandsiz, bir bolali, ikki bolali, uch-turt bolali, besh va undan ortiq bolali oilalarga ajratiladi. Shuni ta'kidlash kerakki, bolalar soniga ko'ra oilalar etnopsixologik ahamiyat kasb etadi. Masalan: AQSH, Rossiya, Germaniyada 3-4 bolalilar ko'p bolali iolalarga kiritiladi. O'zbekistonga esa o'rtach bolali oilalar hisoblanadi.
- Er-xotin ijtimoiy kelib chiqishiga ko'ra:** ishchilar, dehqonlar, xizmatchilar, ziyolilar, aralash tipdagi oilalarga ajratiladi.
- Er-xotin ma'lumot saviyasiga ko'ra:** oliy ma'lumotli, o'rta maxsus-ma'lumotli, o'rta, o'rta tugallanmagan.
- Oilaning yoshiga ko'ra:** yosh (1 yilgacha, 3-4 yillik, 6-10 yillik), o'rta yoshdagi oila, etuk yoshdagi oila.
- Ota- onasini ta'minlanganiga ko'ra:** bir-biriga mos oila, bir-biriga mos bo'lmagan oila.

8. **Regional jihatiga ko'ra:** shahar oilalari, qishloq oilalari, aralash tipdagi oilalar.

9. **Nikohdan qoniqqanlik darajasiga ko'ra:**quyi, o'rta, yuqori.

10.**Oilada kim etakchiligiga ko'ra:** patriarxal, matriarxal,biarxat (birga bajaradi)

11.**Er-xotin munosabatiga ko'ra:**avtoritar, demokratiya, liberal, aralash tipdagi oilalar.

12.**Er-xotin millatiga ko'ra:** bir millatli yoki baynalminal oilalarga ajratiladi. Baynalminal 2 ga bulinadi:

a)dini, urf-odati yoki tili bir urug'ga kirgan oilalar. Masalan:o'zbek-turkman, rus-ukrayin.

b) dini, urf-odati yoki tili bir urug'ga kirmaydigan oilalar. Malan:o'zbek-ukrain.

13.**Bolalar manfaatiga yunalganligiga ko'ra:** avtoritar, ambivalent deotsentrik, kvaziovtnom deotsentrik.

a)avtoretar- bunday oilalarda bolaga g'amxurlik kuchli bo'ladi. Doimo ota-ona nazorati ostida.

b) ambivalent detosentrik bunday oilalarga bola ota-onaning hissiy emotsional g'amxurligi ostida bo'ladi. Masalan: qiz bola bo'lsa, ota-onasiga erkalanib katta bo'ladi. keyinchalik oilali bo'lganidan keyin oilani shunday tasovvur qiladi.

g) kvaziovtnom detosentrik bunday oilalarda bola huquqlari kattalar bilan tenglashtiriladi. Bolaga o'z holicha qaror qabul qilishiga imkon beriladi.

14. **Yuridik rasmiylashtirilganiga ko'ra:**sinovdagi oilalar (birga yashaydi, ammo hali nikoh rasmiylashtirilmagan), rasmiylanish arafasidagi oila (birga yashaydi oila ko'rish maqsadi aniq, lekin ayrim ob'ektiv sabablarga ko'ra rasmiylashtirish kechiktirilgan), nikohdagi oila, nikohdan tashqaridagi oila (ayrim erkak ikkinchi, uchunchi xotin bilan yashashi).

Oilaning asosiy vazifalari dinda ham, sharq allomalari asarlariga ham kursatib o'tilgan.

Dinda keltiriladi. “Qachonki er o'z xotiniga qarasa, xotin o'z eriga qarasa , Tangri ham ularga rahmat ko'zi bilan qaraydi,bordi-yu kaftini kaftiga quysa barmoqlari orasidagi gunohlari duv-duv tukiladi” (44-hadis). “Hech bir ota o'z farzandiga xulq-odobdan buyukroq meros bera olmaydi” (136-hadis)

Sharq allomalari tomonidan keltiriladi. Ibn Sino o'zining “Tadbiri manzil” asarida “Agar oila boshlig'i tarbiyasiz bo'lsa, o'z o'g'liga tarbiya bera olmaydi.Ota-ona nafaqat farzandiga so'z bilan ,balki amalga ham ta'sir ko'tsatisi lozim ”-deb ta'kidlab o'tadi.

Oilalarning vazifalari haqida rus va xorij psixologlarini qarashlari.

S.D Laptinok oilani qo'yidagi vazifalarini keltirib o'tadi.

1)xo'jalik – maishiy vazifasi

- 2)reproduktiv vazifasi
- 3)tarbiyaviy vazifasi
- 4)oilani a'zolarining dam olishini tashkil etish.

N.G.Yurkievich oilani qo'yidagi vazifalarini keltirib o'tadi.

- 1)muloqot vazifasi
- 2)seksual vazifasi
- 3)reproduktiv vazifasi
- 5)tarbiyaviy vazifasi
- 6)iqtisodiy vazifasi
- 7)dam olishni tashkil etish vazifasi

A.G. Xarchev oilani qo'yidagi vazifalarini keltirib o'tadi.

- 1)reproduktiv vazifasi
- 2)ishtimoiylashuv vazifasi
- 3)xo'jalik vazifasi
- 4)istimolchi vazifasi
- 5) dam olishni tashkil etish vazifasi

A.N. Leontov oilani qo'yidagi vazifalarini keltirib o'tadi.

- 1) ishtimoiy vazifasi
- 2)hissiy emotsiya vazifasi
- 3)jismoniy quvvatni taminlash vazifasi
- 4)baxt, tinchlik-totuvlikni barqarorlashtirish vazifasi
- 5)jinsiy vazifasi
- 6) reproduktiv vazifasi
- 7) tarbiyaviy vazifasi
- 8)xususiy mulkka ega bo'lish vazifasi

O'zbek psixologi **G'.B.Shoumarov** tomonidan oilani qo'yidagi vazifalarini keltiriladi.

- 1)iqtisodiy vazifasi
- 2)reproduktiv vazifasi
- 3) tarbiyaviy vazifasi
- 4)rekreativ vazifasi
- 5)kommunikativ vazifasi
- 6)regulyativ vazifasi
- 7)felotsitologik vazifasi
- 8)relaksatsiya vazifasi

Hozirgi zamon oilasining asosiy vazifalarini batafsilroq ochib beramiz.

1. **Oilaning iqtisodiy vazifasi**-oilaning bu vazifasi haqida gapirganda oilaning buyudjeti, daromadi rejalashtirish, kundalik sarf xarajatlar,mablag'ni zarur buyumlarga ajratish,bir necha yildan sung loinadigan narsalarga pul yig'ishni tug'ri tashkil qilish tushuniladi. Shuningdek oilada usayotgan farzandga iqtisodiy bilimlarni,

kunikma, malakalarni shakllantirishni tushunamiz. Xalqimizga “er-xotin qush hukuz”-degan gap azal-azaldan aytilgan.

2. Oilaning reproduktiv vazifasi-bu vazifasi jamiyat davomiyligini ta'minlashdan iborat. Yani har bir oilada farzand ko'rish orqali ovladlar davomiyligi saqlanib turadi. Farzandni tug'ulishi er-xotin o'rtasidagi munosabatni mustahkamlaydi. A.Antonov ta'kidlashicha oiladagi bolalar soni 2,6 tadan kam bo'lmasligi avlodlar davomiyligini saqlab turadi. Agr har bir oilada 1tadan farzand dunyoga kelsa bu millat 8-avlodga borib yuqolib ketadi. Bu o'rtacha hisoblangan jamiyat uchun tegishli. Xitoy bunday holatdan mustasno. Har bir oilada bir farzandning voyaga etishi uchu shu oila jamiyatga kamida 15000000 foyda keltiradi. YUNISEF tashkilotining ma'lumotiga ko'ra farzandlarning tug'ulishi kamayib bormoqda. Buni quyidagi jadvaldan anglash qeyin emas.

Mamlakatlar		1989 yil	2002 yil
1	Rossiya	14,7	9,7
2	Qozog'iston	23,4	15,3
3	Tojikiston	38,8	27,2
4	Turkmaniston	34,8	22,0
5	O'zbekiston	33,3	21,1

Rossiyada ko'p farzandli oilalar 1% tashkil qilayapti o'rtacha miqdordagi oilalar 5% ni tashkil qilmoqda. O'zbekistonga ham farzandlar kamayishi kuzatilmoqda, lekin bu jamiyatga xaf tug'dirmaydi. Sababi bizda oilada farzandni kamayishi 5,6,7,8,9-farzandlarni tug'ulmasligi natijasidir. Baribir 2,6 dan ko'p farzand har bir oilada tug'ri keladi.

3.Oilaning tarbiyaviy vazifasi- bu bolani axloqiy, aqliy, estetik, ma'naviy etuk shaxs qilib voyaga etkazish jarayonini o'z ichiga qamrab oladi. A.avloniy o'zining “Turkiy Guliston yoxud axloq” asrida “tarbiya bizlar uchun yo hayot yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat yo falokat masalasidir”-deb ta'kidlab o'tgan edi. Bu o'rinda jismoniy tarbiyani ham aytib o'tish kerak. “Sog'lom tanda sog'lom aql”- deyishadi. Odamni hayvonlardan ajratib turadigan jihati buyuk MA'NAVIYATIDIR. (O'.Hoshimovning “Hoshiya chitidagi bitiklar” kitobini o'qing)

4.Oilaning kommunikativ vazifasi- bu uzoro tushunishga bo'lgan ehtiyojlarni qondirishga xizmat qiladi. Psixologlarning fikricha ustonovka, hissiy yunalganlik, odamning axloqi oildagi muloqotga bog'liq. Hayot taraqqiy etayapti, urbanizatsiyalashuv oilada muloqot ehtiyoji oshirib bormoqda. Oilaning kommunikativ vazifasiga avlodlararo muloqot muhim ahamiyat kasb etadi. Oilada muloqot etishmasligi tufayli stress,suitsid kelib chiqadi. Afsuski. Bunday holatlar ko'payib bormoqda.

5.Oilaning rekriativ vazifasi- bu axloqiy psixologik himoyani ta'minlash, shuningdek bolalarga va mehnatga yaroqsiz keksa qarindoshlarga moddiy- ma'naviy yordam ko'rsatishdan iborat jarayondir. Boshqacha aytganda, rekreativ vazifa jismoniy, moddiy, psixologik yordam ko'rsatish. Shuningdek, oila a'zolarini salomatligini asrash, dam olishni tashkil etishni o'z ichida qamrab oladi.

6.Oilaning felotsitologik vazifasi – bu baxtga erishish demakdir. “filitsiti-baxt, italyancha” buning uchun er-xotin eng avvala bir – birini tushunishi talab etiladi. Har bir inson oila qo'rar ekan, o'z oldiga baxtli bo'lishni maqsad qilib qo'yadi.

7.Oilaning regulyativ vazifasi – bunda oilada o'zaro munosabatlarni boshqarish tushuniladi. Shuningdek oilaning ijtimoiy nazorat qilish jarayonidir. Oiladagi ustun kishi oilaning har bir jabhasini nazorat qiladi. Sharqda ko'pinch erkak oilani boshqaradi. Ayrim hollarda ba'zi ayollarning liderlikka davogarligi tufayli oilada ko'p salbiy jihatlar namoyon bo'ladi.

8. Oilaning relaksatsiya vazifasi – bu degani oila a'zolarining emotsional foaliyatini, ruhiy va jismoniy quvvatini, mehnat qobiliyatini qayta tiklash demakdir. Inson oilada uning a'zolari tomonidan qo'llab quvatlanishi, ruhiy dalda natijasida ertangi kun uchun shijoat oladi. Fan texnikani rivojlanishi, bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyatda tinimsiz mehnat qilishni talab etadi. Oilada bu vazifani bajarilmasligi oila a'zolarida asab zo'riqishlarni, ishda turli xatolarni ortishiga olib keladi. Inson baxtni 4/3 qismi oiladan oiladan oladi. Oila biz uchun MUQADDASDIR!!!